



## Social activism of women in society

**Mukhabbatkhon BAKIYEVA<sup>1</sup>**

University of Economics and Pedagogy

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received August 2024

Received in revised form

10 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

25 October 2024

**Keywords:**

society,  
gender equality,  
women, social activism,  
attention to women,  
education,  
employment,  
career.

### ABSTRACT

This article will discuss the social activity of women and girls in society, which reflects the cultural standards and spiritual development of the community. It presents perspectives on systemic reforms and gender equality policies designed to support women and girls in achieving leadership roles across social and political spheres.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4/S-pp81-85>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

jamiyat,  
gender tenglik,  
xotin-qizlar,  
ijtimoiy faollik,  
ayollarga e'tibor,  
ta'lim,  
bandlik,  
kasb-hunar.

Ushbu maqolada jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligini tavsiflaydigan ayol-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi haqida so'z boradi. Ayol-qizlarning ijtimoiy va siyosiy jabhalarda yetakchi o'rinlarni egallashiga qaratilgan tizimli islohotlar, gender tenglik siyosati haqida fikrlar ifodalangan.

## Социальная активность женщин в обществе

### АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**

общество,  
гендерное равенство,  
женщины,

В статье рассматривается социальная активность женщин и девочек как показатель культурного уровня и духовного развития общества. Выражены взгляды на системные

<sup>1</sup> Associate Professor, PhD, Head of the Department of Primary and Preschool Education, University of Economics and Pedagogy.

социальная активность,  
внимание к женщинам,  
образование,  
занятость,  
профессия.

реформы и политику гендерного равенства, направленные  
на поддержку женщин в стремлении занимать лидирующие  
позиции в социальной и политической сферах.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq xotin-qizlarning jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu sababli mamlakatimizda olib borilayotgan xotin-qizlarga oid islohotlar hamda ijtimoiy faol ayol va uning axloqiy xatti-harakatlarining jamiyat ravnaqidagi o'rnini tahlil etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat qurilishi, ishlab chiqarish, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, fuqarolik institutlari faoliyatida ayol-qizlarning ijtimoiy faolligi nihoyatda zarur bo'lib, ulardagi ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirish va kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Barkamol avlod tarbiyasida xotin-qizlarning ijtimoiylashuv muammolari ijobiy hal etilishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning yechimini topishda, balki yangi jamiyat quruvchilarni tarbiyalash ishlarini to'g'ri tashkillashtirish va amalga oshirish borasida ham ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli bugungi kunda inson, shaxs muammosi jamiyat miqyosida ham, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ham eng dolzarb masalalar darajasiga ko'tarildi. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish ko'p qirrali, murakkab hodisa bo'lib, bu ularning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan muhim va o'ziga xos jihatlardan biridir. Tabiiyki, muammoning nafaqat mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish konsepsiyasi orqali o'rganilishi, balki yangi ma'naviy-axloqiy tamoyillar, yangi innovatsion texnologiyalar va jarayonlar orqali o'rganilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur", deb alohida ta'kidlagan. Buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat: "Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun, avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim", deb yozgan edi. "Biz Uchinchi Renessans poydevorini qurish, jamiyatda yangi ma'naviy makon yaratish haqida gapirar ekanmiz, bu ishlarni otalar, onalar, ustozlar ma'naviyati bilan uzviy amalga oshirishimiz zarur. Bugun biz ochiq jamiyatda yashayapmiz. Bu imkoniyatdan to'g'ri foydalanib, ilg'or g'oyalarni o'zlashtirishimiz kerak. Lekin milliy qiyofamizga putur yetkazadigan illatlardan ehtiyot bo'lishimiz, o'zligimizni yo'qotmasligimiz shart".

"Amerikada demokratiya" asarining muallifi, XIX asr fransuz gumanisti va faylasufi Aleksis de Tokvil bu xususda shunday fikr yuritadi: "Ba'zilar erkak va ayolni nafaqat tengligi, balki yaxlit ekanini ta'kidlaydilar. Ular erkak va ayolga bir xil huquqlarni beribgina qolmay, bir xil majburiyatlarni ham ularning zimmasiga yuklaydilar. Ular erkak va ayolni bir xil fikrlashi, mehnat qilishini istaydilar. Bu yaxshilikka olib kelmaydi, erkak va ayolning jins sifatida inqirozini keltirib chiqaradi, zaif erkaklarni va kuchli ayollarni paydo qiladi". Sharq qadriyatlarida ayol doimo erkak kishiga do'st, yor, oqila, mehribon, oilaviy tinchlikning rahnamosi sifatida ulug'langan.

Ayollarning oila va jamiyatdagi roli, xususan, farzand tarbiyasi va ijtimoiylashuvidagi ahamiyati mutafakkirlar tomonidan e'tirof etilgan. Abu Rayhon Beruniy o'z qarashlarida oila tinchligi bevosita oqila, aqli, farosatli, tarbiyali ayollar qo'lida

ekanligiga alohida ahamiyat qaratgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarining yetakchi ma'rifatparvarlari M.Behbudiy, A.Fitrat va A.Avloniy xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasida keng fikrlar bildirganlar. Masalan, Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida shunday fikrlar bor: "Ayollarning huquqlari, albatta, din va milliy qadriyatlar bilan ham bog'liqdir. Islom dini kirib kelgunga qadar qizlar tug'iliboq tiriklayin o'ldirilgani ko'pchilikka ma'lum. Muqaddas Islom dini hamisha ayollarni e'zozlashga buyuradi. "Jannat onalar oyog'i ostidadir" degan naql asrlar osha o'z mavqeyini yo'qotmagan. Islom ta'limoti ayollarni ilm olish, mehnat qilish, meros huquqi, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishda erkaklar bilan teng huquqli qildi. Hadislarda "ilm olish har bir muslim va muslimaga xosdir", deyilgan. Islomda oila, nikoh, meros masalalarida ayolga ko'proq yon beriladi, nikohsiz yashashga ruxsat berilmay, shu tariqa ayolning huquqi ta'minlanadi. Nikoh shartlaridan bo'lmish mahr ham aynan ayollarning foydasi uchun joriy etilgan".

Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faoliyati haqidagi qarashlar va ta'limotlar G'arb hamda Sharq falsafiy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Xotin-qizlarning ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri ular faoliyat yuritayotgan mehnat jamoasidagi boshqaruvning qanday xarakterga egaligi bo'lib bu, asosan, rahbarlarning boshqaruv madaniyati, usul va vositalariga bog'liq bo'ladi. Rahbar mehnat jamoasidagi muhitni qanchalik erkinlashtirsa, ayollarimizning nozik jins vakillari ekanligini his qilib tursa va ular faoliyatini modernizatsiyalashga oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlasa, ularni amalga oshirishda o'rnak ko'rsata olsa, ayollarning jamoadagi faolligiga ta'sir qila oladi va bu o'z-o'zidan ularning siyosiy faolligini yanada oshishiga turtki bo'ladi.

Ayollar faolligini oshirishda ruhiy holat muhim rol o'ynaydi. Agar ayollar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarida faoliyatni amalga oshirish uchun ruhiy jihatdan tayyor bo'lmasa, ular o'rtasida olib borilayotgan tadbirlar o'zining kutilgan natijasini bermaydi. Shunga ko'ra, ayollar faolligi quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

- dunyoqarashni boyituvchi va mutaxassislik bilimlariga ega bo'lish;
- ma'naviy-ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish;
- ma'naviy faoliyatning ko'lami va mazmuni;
- ma'naviy-ijtimoiy vaziyatlarni baholay olish;
- ma'naviy-ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda onglilik, g'oyaviylik, vatanparvarlik,

mustaqillik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, insonparvarlik, baynalmilallik, ishchanlik, tezkorlik, erkin fikr yuritish, ijodkorlik, mas'uliyatni his etish kabi xislatlarni namoyon etish va boshqalar.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj xotin-qizlarimizni bugun faol qilib, qiyin vaziyatida ularni o'qitib, kasb-hunarli qilib, muammolarini o'zlari yengishga asosiy e'tibor qaratilmoqda va ijtimoiy xodim sifatida bu bizning ustuvor maqsadimiz. Zamonamizni o'tmish tarix bilan taqqoslasak, xotin-qizlarimizning bugungidek erkinligi, huquq va imkoniyat jihatidan tengligi taqsinga sazovordir. Bugun xotin-qizlarimiz uchun mavjud imtiyozlarni ko'rib chiqamiz:

- Xotin-qizlar o'qishga kirishida qo'shimcha davlat granti va imtiyozli kreditlar;
- Kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlarga yordam;
- To'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan yoxud ota-onasining ikkisi ham vafot etgan ijtimoiy himoya muhtoj qizlarga davlatimiz tomonidan ko'mak;
- Turmush o'rtog'i vafot etgan. Voyaga yetmagan farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarga yordam;

- Nogironligi bo'lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga ijtimoiy-psixologik ko'maklashish.

Yuqoridagi ehtiyojmand toifalarga tavsiyanoma Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan beriladi hamda bu toifalar "Ayollar daftari" ga ham tegishlidir. "Ayollar daftari" ga 30 yoshdan oshgan xotin va qizlarimizni qamrab oladi. Qo'llab-quvvatlash, asosan, (moddiy tomonlama, natura shaklida, dori-darmon bilan ta'minlash, jarrohlik amaliyoti uchun mablag'lar bilan qo'llab-quvvatlash) ni o'z ichiga oladi. OTM uchun 4 % kvotani olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida PF-5325-sonli Farmoni e'lon qilindi.

Bundan tashqari 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938 "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni qabul qilindi. Bunda yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, xotin-qizlarning bandligi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, qishloq joylarda xotin-qizlarning oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilikka jalb qilishga ham atroflicha to'xtab o'tilgan.

Ayollarning jamiyatdagi o'rni va rolini oshirish, davlat boshqaruviga ularni yanada kengroq jalb qilish, mamlakatning siyosiy boshqaruvi sohasida ularning faolligini yanada oshirish vazifalari keng ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bugun jamiyatimizning ilmiy-texnikaviy faoliyatida xotin-qizlar faol ishtirok etmoqda. Olima ayollar tomonidan ilm-fan sohasidagi izlanishlar ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy sohalarining rivojiga salmoqli hissa bo'lmoqda. 2018-yildan beri o'tkazib kelinayotgan "O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi" tanlovida ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish maqsadida talaba va o'quvchi qizlar, dasturchi va tadbirkor ayollar ishtirok etib keladi. "Olima ayollar grantlari" tanlovi xotin-qizlarni ilm-fan sohasida qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda ayollarning ilmiy faoliyatda nufuzi va o'rnini yanada oshirishga daxldor masalalar – olimalarga ijtimoiy muammolarni o'z vaqtida hal etishga ko'maklashish, tadqiqotlarni amalga oshirishning tashkiliy imkoniyatlarini yaratish, ilmiy faoliyatda gender diskriminatsiya muammosiga barham berish, olima ayollar uchun ilmiy nufuzli mukofotlar ta'sis etish, tadqiqot grantlari, xorijiy stajirovka dasturlarini kengaytirish, olimalarning akademik mobilligini oshirish, innovatsion g'oyalarni tijoratlalashtirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash loyihalarini yo'lga qo'yish, ilm-fanni ijtimoiy taraqqiyotning drayveri va generatoriga aylantirish sohaning bundan keyingi rivojida samarali yechimdir.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, ta'lim olayotgan, mehnatda band bo'lgan, jamiyat hayotida ijtimoiy faol sanalgan xotin-qizlarimizning intilishlari va qobiliyatlarini inobatga olishimiz, ularni jamiyatda erkaklar bilan faoliyatini uzviy va uyg'un tarzda davom ettirish, imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Ayol-qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilishimiz va jamiyatimizda ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish maqsadga muvofiq strategiyadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh.M.Mirziyoev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi asosiy ma'lumotlar. 2022-yil 2-mart.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-sentabrda "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va hamda imkoniyatlar kafolatlari" to'g'risidagi O'RQ-562-sonli qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 7-mart Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi.
5. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2015-yil 22-dekabrda qabul qilingan "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar" to'g'risida rezolyutsiyasi
6. Qaxramon Abdulxamid o'g'li Axmedov, Aziza Jovli Qizi Sodiqova JAMIYATDA XOTIN – QIZLAR VA ULARNING IJTIMOIIY FAOLLIIGI // Academic research in educational sciences. 2023. №Periodical Collection
- 7.URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/jamiatdaxotin-qizlar-va-ularning-ijtimoiy-faolliig> (data obrashcheniya: 13.02.2024)